



NEKRONIMLARNING LUG'AVIY-MA'NOVIY XUSUSIYATLARI

Soliyev Jamshidbek

Farg'ona davlat universiteti magistranti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7918091>

ARTICLE INFO

Received: 01st May 2023

Accepted: 09th May 2023

Online: 10th May 2023

KEY WORDS

Nekronim, antroponim, lug'aviy birlik, ko'makchi morfema, Grammatik struktura, semantik struktura.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Marg'ilon va Rishton hududida joylashgan nekronimlarning lug'aviy-ma'noviy xususiyatlari, semantik, grammatik strukturasi borasida fikr ifodalangan. Ularning nomlanish asoslarida shakl va mazmun mutanosibligi shuningdek nomlanish bilan bog'liq bo'lgan asosiy jihatlar lug'aviy birliklarni tahlil qilish vositasida asoslangan.

Kirish

Ma'lum bo'lganidek, nekronimlar semantik, grammatik strukturasi jihatidan qolgan toponimlardan tubdan farq qiladi. Bu holat ularning tarkibida *qozi, mulla, shayx, domla, podsho, xalifa, oyim, eshon, maxsum, shayxulislom, so'fi, aziz, avliyo, chilton, bobo, ota singari lug'aviy birliklarni, shuningdek -boy, -bek, -vachcha, -xona, -xo'r, -liq, -xo'ja, paz, -chi* singari ko'makchi morfemalarni qo'llanganligida namoyon bo'ladi. Marg'ilon hududiga qarashli "Domla Abdurahim qozi Asqar" madrasasi, "Domla Mir Muhammad Amin Qozi Kalon" madrasasi nomlari tarkibidagi qozi leksemasi ikki o'rinda ikki xil shakl bilan ifoda etilganligini ko'rish mumkin.

Asosiy qism

Quyida ba'zi nekronimlar tarkibida unvon, laqab, taxallus shaklida qo'llaniluvchi til birliklarining leksik ma'nolari, ular ifodalagan tushunchalarning mazmuni keltirilgan:

1. Podsho leksemasi- forscha-tojikcha so'zdan olingan bo'lib ba'zi sharq mamlakatlarida mutlaq hokimlik qiluvchi hukmron va shunday unvonga ega shaxs ma'nosini anglatadi.

2. Domla leksemasi -1.Domulla- so'zlashuv tilida qo'llaniluvchi laqab ma'nosida 2. Har qanday ilmi kishiga xurmat bilan murojat etish formasi hisoblanadi. "Domla Tursun Muhammad Oxun" va "Domla Mir Muhammad Amin Qozi" tarkiblarida uning ikkinchi ma'nosi ifoda etilgan.

3. Shayx leksemasi -1. oliy musulmon ruhoniylari vakili 2. Mozor, qadamjo kabi ziyoratgohlar mutassaddisi, avliyolarga, hudo yo'lga atalgan nazr-niyozlarni qabul qiluvchi kishi.

4. Pir leksemasi- fors-tojikchadan olingan so'z bo'lib 1.uoq umr ko'rgan odam 2.diniy mazhab boshlig'i 3.biror kasbning asoschisi, homiysi deb tushuniladigan, ko'pinha afsonaviy yoki



afsonlashtirilgan shaxs 4. Ko'chma ma'noda biror ish kasb yoki sohani juda yaxshi egallagan kishi ma'nosida qo'llaniladi

5. Boyvachcha leksemasi -1.boyning bolasi 2. boylarning farzandlariga murojatda ularning nomi o'rnida yoki nomiga qo'shib ishlatilgan 3. kesatq ma'nosida "o'zini boy bolasidek tutuvchi olifta" ma'nosini anglatadi

6. Mulla -1.Madrasada tahsil ko'rgan kishi ma'nosida- ushbu ma'noda mulla leksemasi aniqlovchi sifatida qo'llanilgan bo'lib kichik harflar bilan yoziladi. 2.Din arbobi, ulomo ma'nosida qo'llanganda esa ushbu birlikning shaxs ma'nosi yuzaga chiqadi. 3. So'zlashuv tilida qo'llaniladigan, eskirgan so'z hisoblanib ma'lumotli, o'qimishli kishi ma'nosini anglatadi. "Mulla Avazbak" masjidi deya nomlanishida mulla leksemasining "din arbobi, ulomo" ma'nosi yuzaga chiqqanligini ko'rish mumkin.

7. Maxsum leksemasi- so'zlashuv tilida maxdum ya'ni do'st ma'nosini anglatadi

8. Sulton leksemasi- arabcha so'zdan olingan bo'lib, sharq mamlakatlarida amir, xon, shoxlar unvoni hisoblanadi. Ko'chma ma'noda qo'llanganda esa o'zgalar oldida eng oldingisi, sarasi ma'nosini yuzaga chiqaradi

9. Eshon leksemasi - fors-tojikcha so'zdan olingan bo'lib dindorlar orasida obro' qozongan ruhoni, din kishisi ma'nosini ifodalaydi

10. Xo'ja leksemasi - fors-tojik tilidan olingan bo'lib 1.biror kimsa yoki narsaning egasi 2.tarixiy so'z hisoblanib birinchi bo'lib islom dinini qabul qilgan yerli kishi, keyinchalik dindorlarning e'tiqodicha 4 halifalardan birining avlodi3.etnografiyaga oid atama bo'lib O'rta Osiyoda ma'lum imtiyozga ega bo'lgan oqsuyaklar va ularning avlodlari ma'nosida 4. Xo'jazoda erkaklar ismiga qo'shiladi

11. Oxun leksemasi -1.Fors-tojikcha so'zdan olingan bo'lib, o'qimishli ilmi kishi: mulla, domla ma'nolarini anglatadi. 2.So'zlashuv tilida xalq ichida uyg'urlarga qo'yilgan laqab

12. Qozi leksemasi -arabcha tarixiy so'zdan olingan bo'lib "o'tmishda shariat qonuni bo'yicha ish ko'rgan amaldor shaxs" ma'nosini anglatgan.

Ushbu leksemalar nekronimlar tarkibiga turlicha qo'shib, shaxsning ijtimoiy darajasini belgilash uchun qo'llanilgan. Yuqoridagi nekronimlarning til xususiyatlariga diqqat qilinsa, ularning nomlanish asoslarining mazmuni va shakl jihatidan joylashuvida ham alohida o'ziga xoslik, nomlanish bilan bog'liq asosiy jihatlar mavjud ekanligi yaqqol ko'zga tashlanadi. O'zbek tili antroponimikasiga oid xulosa va fikrlar ifoda etgan Ernst Begmatov o'zining "O'zbek tili antroponimikasi" nomli kitobida o'tmishda hamda bugungi kunda shaxs ismiga mansub bo'lgan urug' va qabila nomlarining, shaxsning kasb-korini ifoda etuvchi nomlarga qo'shib kelishini alohida ta'kidlagan. Ushbu fikr va xulosalarga tayangan holda nekronimlar borasida olib borgan tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki, nekronimlarning nomlanishida, ularga berilgan turli ko'rinishdagi leksik vositalar mohiyatan bu nomlarning boshqa shaxslardan ajratib ko'rsatish, shaxsni o'zgalardan farqlash uchun xizmat qilgan.

A.K.Borovkov laqabni keng ma'noda tushungan va taxalluslarni laqabga kiritgan, uning ta'kidlashicha, shaxs ismi bilan birga keluvchi Iqoniy (Kamoliddin), Baqirg'oniy (Sulaymon), Yassaviy (Ahmad), O'zgandiy (Shamsiddin)ni laqab deb izohlaydi .

T.Junuzaqov shaxsning tug'ilgan joyiga ishora qiluvchi Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Bolosog'uniy Abu Nasr Farobiy, Xo'ja Amad Yassaviy singari nomlarning ikkinchi qismini familia deb izohlagan .



Laqablar bo'yicha turli tadqiqot ishlarini olib borgan A.M.Selishev, V.K.Chichagov, V.A.Gorlevskiy, G.B.Tropin, T.Jonuzoqov, A.Ishayev, A.M.Peshovlar o'z ishlarida laqablarni turli guruhlarga taqsimlaganlar. Tasnifiy ma'lumotlarga asoslanib fikr yuritilsa laqablarni tasniflashda ma'lum bir materiallarga asoslanib, qo'ldagi mavjud dalillar asosida taqsimlash maqsadga muvofiq ekanligi anglashiladi.

Nekronimlarning til xususiyatlarini tahlil qilar ekanmiz ular tarkibida qo'llaniluvchi bir qancha birliklar diniy ma'noni ifoda etish uchun qo'llanilganligini ko'rishimiz mumkin. Diniy faoliyat bilan bog'liq tarzda ifodalovchi laqab ko'rinishidagi leksik birliklarning ba'zilari shaxsning asosiy real kasb-hunarini ifoda etmaydi. Ularning ba'zilari avloddan avlodga meros tariqasida o'tib boruvchi faxriy unvon ma'nosini yuzaga chiqarib, ajdodlari haqida ham ma'lumotlarni ifodalaydi. Misol uchun Domla Tursun Muhammad Oxun, Hasan va Husan xoja eshon, Domila Abdulkarim Oxun xalifa, Xo'ja ma'oz ibn Jabal, Ismoil Maxsum, Xazrati Aziz Xoji Eshon, Domla Mir Muhammad Amin qozi kalon, Mulla Avazbek, Domla Abdurahim qozi Asqar singari nekronimlar tarkibidagi domla, oxun, xoja, eshon, xalifa, xo'ja, mulla leksemalari kasb-hunar, amal-unvonlar singari vorislik belgisi asosida avloddan avlodga o'tib keluvchi "faxriy nom" hisoblangan.

Xulosa

Bugungi kunda ham mahdumning o'g'il farzandiga nisbatan "mahdum", xo'janing butun urug'i va oila a'zolariga nisbatan "xo'jalar" deya murojaat qilish an'anasi saqlanib qolgan. Bunday birliklarning nekronimlar tarkibida qo'llanilishi ushbu shaxsning oila a'zolari, yaqinlari, ajdodlari haqida ham ma'lumot olish imkonini beradi. Ularning ism asosiga qo'shilib kelish shaklida ham o'ziga xos bo'lgan tushuncha mavjud. Bunda ism oldidan keladigan leksemalar ushbu shaxsning turli xususiyatlarini yuzaga chiqarish uchun qo'llaniladi. Shaxsning ismi bilan qo'llaniluvchi shunday birliklar mavjudki, ular, asosan, vazifasiga ko'ra taxallusga yaqin turadi. Misol uchun: shayx, hakim, amir, movlono, mahdum, ab, abu va yana shunga o'xshash. Ernest Begmatovning ta'kidlashicha "taxallus va ismning asosiy vazifasi shaxsni o'zgalardan farqlash bo'lsa-da, ular orasida ma'lum farqli jihatlar mavjud".

References:

1. S.Qorayev. Toponimika. O'zbekiston faylasuflari milli jamiyati nashriyoti. T:-2006
2. Хасанов Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. Тошкент: Фан, 1965.
3. E.A.Begmatov.O'zbek tili antroponimikasi T.,Fan. 2013-y.
4. Nizomiddin, Q. L., & Jamshidbek, S. (2022). NEKRONIMLAR-TOPONIMIK OBEKTLAR. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 325-329.
5. Jamshidbek, S. (2023). THE NECRONYM OF RISHTON AND MARGILAN SUBJECT GROUPS. *Open Access Repository*, 4(2), 398-403.
6. Kuldashv, N. A. (2020). Agronym Differences In Names. *The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research*, 2(11), 164-168.
7. Ahmadaliyevich, Q. L. N. (2022). TILSHUNOSLIKDA TIL EKOLOGIYASI MUAMMOSINING O 'RGANILISHI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(12), 39-43.



8. Ahmadaliyevich, Q. L. N. (2022). O 'ZBEK SHEVASHUNOSLIGIDA BAG 'DOD TUMANI SHEVASINING LEKSIK XUSUSIYATLARINI O 'RGANILISHI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(9), 134-136.
9. Ahmadaliyevich, Q. L. N. (2022). TILSHUNOSLIKDA TIL EKOLOGIYASI MUAMMOSINING O 'RGANILISHI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(12), 39-43.
10. Quldashev, N. (2020). НАВОЙНИНГ СЎЗ ҚУВВАТИ. *ILMIY XABARLAR–HAUCHNYY BVESTNIK. ФЕРГУ*.
11. Quldashev, N. (2020). NUTQIY MUKAMMALLIK VA NUTQIY JINOYAT. *TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTLARI ILMIY-NAZARIY JURNALI*.
12. Quldashev, N. (2020). ЭКОЛОГИК ЛИНГВИСТИКА ФАНЛАРАПО ИЛМ-ФАН СИФАТИДА: МАНБА ВА ДИНАМИКА. *FarDU. ILMIY XABARLAR–HAUCHNYY BVESTNIK. ФЕРГУ*.
13. Quldashev, N. (2020). LINGVOEKOLOGIYA: TIL VA NUTQ SOFLIGINING NAZARIY MASALALARI. *TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTLARI ILMIY-NAZARIY JURNALI*.
14. Quldashev, N. (2017). ЭКОЛИНГВИСТИКА. *FarDU. ILMIY XABARLAR–HAUCHNYY BVESTNIK. ФЕРГУ*.
15. Quldashev, N. (2022, July). РЕКЛАМА МАТНЛАРИ ТИЛИГА АЙРИМ МУЛОHAZALAR. In *INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS*. (Vol. 1, No. 2, pp. 244-250).
16. Zokirov, M. T., & Zokirova, S. M. (2020). About Lexical-semantic Interference in the Speech of Tajiks, Living in Fergana Region of the Republic of Uzbekistan. *International Journal of Pharmaceutical Research*, 12(3), 10-11.
17. Turdaliyevich, Z. M., & Farhod, I. (2022). Loiq Is the Successor of the Great Figures Of Tajik Literature. *International Journal of Culture and Modernity*, 14, 51-55.
18. Turdaliyevich, Z. M. (2022). Actual Problems of Bilingualism in a Multi-Ethnic Environment. *International Journal of Culture and Modernity*, 13, 17-23.
19. Ibragimova, E. I., Zokirov, M. T., Qurbonova, S. M., & Abbozov, O. Q. (2018). Filologiyaning dolzarb masalalari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy internetkonferensiya materiallari: Ilmiy ishlar to" plami. *Farg" ona*, 113.
20. Зокиров, М., & Зокирова, С. (2010). ТИЛ ИНТЕРФЕРЕНЦИЯСИНИНГ МОҲИЯТИ ҲАҚИДА УМУМИЙ ТУШУНЧА. *Известия ВУЗов (Кыргызстан)*, (6), 10-11.
21. Zokirov, M. T. (2007). Lingvistik interferensiya va uning o'zbek-tojik bilingvizmida namoyon bo'lishi. *Fil. fn ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya*.
22. Khamrakulova, S. A. B. I. N. A., & Zokirov, M. T. (2022). Phraseological units expressing old age of a human being in the English and Russian languages. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 1(105), 280-283.
23. Mamajonov, A., & Dadabayeva, S. (2022). SUPERSYNTACTIC INTEGRITY WITH THE MEANING OF CONTRAST. *American Journal Of Philological Sciences*, 2(04), 14-20.
24. Zokirov, M. (2023). THE PHENOMENA OF ENANTIOSEMIA IN DIFFERENT PARTS OF SPEECH. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(4), 345-348.



25. Turdialiyevich, Z. M. (2023). TALVASA ASARIDA QO'LLANGAN FONOSTILISTIK VOSITALAR. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(4), 492-495.